

QAHRAMONLAR QISMATIGA YASHIRINGAN SIR

Botirova Anaxon Dilmurod qizi ¹

¹ *Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti
o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.02.2025

Revised: 21.02.2025

Accepted: 22.02.2025

Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirov asarlarida qo'llangan prototiplar haqida so'z boradi va ularni asarga kiritishga turtki bo'lgan omillar tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR:

*qahramon, prototip,
roman, asar, tarixiy
shaxs, hikoya,
badiiylashtirish.*

KIRISH. Hayot ko'p qatlamli, ko'p qirrali, to'xtovsiz va cheksiz harakatdagi jarayonlar yig'indisidan tarkib topgan. Adabiyot ana shu cheksiz, go'zal va boy hayotdan tug'iladi. Shu boisdan ham davr muammolari adabiyot muammolariga aylanadi. Konkret tarixiy sharoit, davrning ma'naviy ehtiyojlari, uning muammolari badiiy adabiyotning taraqqiyoti jarayonida, xususan, davr qahramonlari taqdirida ham hal qiluvchi mezonlardan hisoblanadi. Qolaversa, hayot voqeliklari badiiylashtirilib adabiyot olamiga tatbiq etilsa, kitobxonga o'zgacha ta'sir qiladi, uni mushohada qilishga, hayot haqiqati ustidan hukm chiqarishga chaqiradi. Badiiy adabiyotdagi bosh qahramon talqinida davrning dolzarb muammolarini mujassam etish ijodning asosiy masalalaridan bo'lib kelgani ayon masala.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, o'zbek nasrining zabardast vakillaridan biri, "o'tkir qalamli adib" deya e'tirof etiladigan ijodkor Pirimqul Qodirovning qahramonlari ham hayot haqiqatlariga tayangan holda dunyoga kelgan. Yozuvchi asarlarida goh ustozlari, goh yor-birodlari, hattoki, qarindosh-urug'larini ham prototip sifatida tanlab olish o'rinlari uchraydi. Bu Pirimqul Qodirov ijodida an'anaga aylangan hodisa desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, "Uch ildiz" da ustozlari Oybek, Abdulla Qahhor, ayoli Sofiyaxon, "Meros"da mashhur paxtakor Mamajon Dadajonov, "Olov"da akasi Haydar aka, "Jangchining qasosi"da yaqin do'sti Matyoqub Qo'shjonov, "Ilinj" da opasi Iqbol opalarning qismati qalamga olingan.

Pirimqul Qodirovning esdaliklaridan birida shunday fikrlar uchraydi: "Mudhish qatag'on yillarida suyuqli ijodkorimizga nohaq otilgan malomat toshlaridan qattiq iztirob chekkanman. Axir, o'zim ham hali aqlimni tanimasdan shafqatsiz qatag'on og'riqlarini

tanamda his qilgan edim-da. Haq soʻz uchun ijodkorlarning boshi ketayotgan ogʻir zamon edi. Shunday boʻlsa-da, asarlarimda iztiroblarim, noroziligimni ramzlar vositasida koʻrsatishga harakat qilganman. “Uch ildiz” romanida shunday epizod bor: millatparvar olimlar – professor Abdurahmon Toshev va dotsent Temur Akbarovga ichiqora, baxil kimsalar tuhmat uyushtiradi. Oʻz fikrida sobit olimlar boʻhton va malomatga qarshi mardona kurashadilar. Kezi kelganda aytishim kerakki, talabalarning sevimli professori Toshev obrazida Oybek domla va bizga tarixdan dars bergan Abdurahmon Hamroyevni nazarda tutganman. Mustabid tuzum malaylariga qarshi dadil kurashgan Temur Akbarov timsolida esa ustoz Abdulla Qahhorni tasvirlaganman.

Oybekning hayotida ham xuddi asar qahramoni Abdurahmon domlanikiga oʻxshagan voqealar roʻy bergan. Oybekning nasablari Toshmuhammad ekani nazarda tutilib, asar qahramoni Toshev deb ataladi. Ozod Sharafiddinovning “Millatni uygʻotgan adib” maqolasida quyidagi jumlar uchraydi: “Navoiy” romani ham avvaliga 3-4 yil hamma joyda maqtab koʻklarga koʻtarildi. Keyin esa birdaniga bulutsiz osmonda chaqmoq chaqnagandek, respublika gazetasida Botir Fayziyev degan odamning katta maqolasi bosildi. Unda romanda tasvirlangan Binoiy va Navoiy munosabatlarini roʻkach qilib, muallif Oybekni tojik xalqiga tuhmat qilishda ayblagan edi. Uning fikricha, Oybek tojik va oʻzbek xalqlarining tarixiy doʻstligini buzib koʻrsatgan va ashaddiy millatchilikka yoʻl qoʻygan. Maqoladan keyin gʻiybat va boʻhton qozoni joʻsh urib qaynay ketdi – Oybekning boshiga qora bulutlar yogʻildi, u Yozuvchilar uyushmasidan haydaldi va qamoqqa surgun qilindi”. Badiiy asarning qudrati orqali bu taqdir kitobxonga yana-da kuchliroq taʼsir qilishini anglagan adib Pirimqul Qodirov oʻzbekning iftixori boʻlgan Oybekni Abdurahmon Toshev qiyofasida oʻquvchiga tanitdi.

Temur Akbarovning taqdiri esa hassos yozuvchimiz Abdulla Qahhorni yodga soladi. Chunki muallif Abdulla Qahhorga ham “Qoʻshchinor” romanini yozgani uchun nohaq tuhmat toshlari otilganini Temur Akbarov obrazi orqali yoritib beradi. Bilamizki, Abdulla Qahhorning ushbu asari urushdan keyin, yaʼni 1949-yilda yozilgan boʻlib, unda qishloq xoʻjaligini jamoalashtirish (kolxozlashtirish) mavzusi bayon qilinadi. Roman dastlab “Qoʻshchinor” nomini oladi. Biroq matbuotda, Yozuvchilar uyushmasida va boshqa joylarda bildirilgan noʻrin tanqidiy gaplar tufayli bu asar jiddiy qayta ishlanadi va “Qoʻshchinor chiroqlari” nomi bilan 1951-yil qaytadan nashr etiladi.

Ijodkorning paxtakorlar hayoti haqida hikoya qiluvchi “Meros” qissasining bosh qahramoni Yolqin Otajonovning taqdiri oʻsha davrdagi mashhur paxtakor Mamajon Dadajonovning taqdiri asosiga qurilgan. Asarga ushbu shaxsning hayoti asos qilib olingan boʻlsa-da, u aniq hujjatli, biografik qissa emas; yozuvchi shu odam hayot yoʻli bahonasida soʻnggi chorak asr davomida qishloqlarda yuz bergan muhim oʻzgarishlarni, fan-texnika revolyutsiyasi tufayli sodir boʻlayotgan bir qator jarayonlarni ifoda etmoqchi, qishloq kishilari, paxtakor mehnati, umuman, yashashning maʼnosi xususida koʻp yillik kuzatish,

xulosalarni, ko'ngildagi gaplarni to'kib solmoqchi bo'lgan. Xuddi shu niyat oqibati bo'lsa kerak, hayotdagi qahramon Mamajon Dadajonov nomini o'zgartirib uni asarda Yolqin Otajonov deb atagan, bu hol esa yozuvchiga katta erkinlik bergan.

Ijodkorning "Jangchining qasosi" nomli hikoyasida ham fashistlar zulmi ostida qolgan Ladoga shahrida bo'lgan voqealar bayon qilinadi. Bu asar ham adibning yaqinlaridan biriga bag'ishlov tarzida yozilgan. Hikoya boshlanmasida Pirimqul Qodirovning shunday so'zlari keltirib o'tilgan: "Bu hikoya frontda snayper bo'lgan va o'nlab fashistlarni safdan chiqargan do'stim Matyoqub Qo'shjonovning boshdan kechirganlariga asoslanib yozildi". O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga munosib hissa qo'shgan yetuk olim M.Qo'shjonov 1941-1945-yillarda Ulug' Vatan urushida mergan sifatida ishtirok etgan.

Hikoyaga bosh qahramon qilib adabiyot o'qituvchisi Matnazar Bekjonov tanlangan. Asar o'ninchi sinf o'quvchilarining ustoziga bergan savoli bilan boshlanadi. "Qanday jang qilganingizni nega hech aytmaydiz?", "Oltmishta fashistni otganingiz chinmi?", "Hammasini birdan otganmisiz?" kabi savollar Matnazar akaga yana o'sha dahshatli davrlarni eslash uchun turtki bo'ladi. Kuchli nafrat changalida u oltmishta fashistni yer bilan bitta qiladi va yengilgan fashistlarning bayrog'ini Qizil Maydonga olib kelib yerga uloqtiradi. Bosqinchilarga qasos qanday qaytishini, adolat qanday tantana qilganini ko'rsatib, butun dunyoni yana bir karra qoyil qoldiradi.

Xullas, yuqorida nomlari tilga olingan shaxslarning hayotini badiiylashtirish, uni adabiyot sahifalariga joylashtirish adibning mahorati yuksak ekaligidan nishonadir. Bu tarixiy shaxslarning hayot yo'li esa barchamiz uchun ibrat maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: "Universitet", 2001. – B. 5.
2. Normatov U. Yetuklik//Hayot bilan hamnafaslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. – B. 210.
3. Qodirov P. Akramning sarguzashtlari: Qissa va hikoyalar. – T.: Yosh Gvardiya, 1988. – B. 309.
4. <https://kh-davron.uz>
5. <https://www.xabar.uz>